

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil “24” iyun da
71 -son bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruvining
2024-yil “24” iyun dagi
134 -sonli qaroriga
4 ILOVA



“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning
samaradorligini monitoring va nazorat qilish Tartibi

(yangi tahrirda)

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME‘YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Tartibi

1. Mazkur Tartib (keyingi o‘rinlarda – Tartib) Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom, boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga va xalqaro ISO 37001:2016 standart talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Tartib “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – “bank”)da korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish (keyingi o‘rinlarda – “monitoring va nazorat”) bankning Komplayens nazorat departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

3. Monitoring va nazoratning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

bank faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetarliligi va korrupsiyaga qarshi tatbiq etilgan tartib-taomillarning samaradorligini baholash orqali korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish;

kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali bankning korrupsiyaga qarshi muvofiqlashtirish tizimini takomillashtirish;

bankning korrupsiyaga qarshi ichki me‘yoriy hujjatlari va tartib-taomillariga rioya qilinishini tahlil qilish;

bank faoliyatida korrupsiya xavf-xatarlar indikatorlarini aniqlash;

manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tahlil qilish;

bankning korrupsiya xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarining bajarilmaganligini aniqlash;

bankda avvalgi o‘tkazilgan monitoring natijalari va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari, boshqa nazorat choralari va ular doirasida taqdim etilgan tavsiyalarga rioya qilinishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish rejasida tasdiqlangan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish.

4. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanadi:

biznes-hamkor – bank biznes aloqalari mavjud bo‘lgan yoki ularni o‘rnatishni rejalashtirgan tashqi tomon;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaaddor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda,

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va bankning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, bank xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

taalluqliligi bo'yicha xabar – bankdagi korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan axborot;

xodim – bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs.

II. Monitoring va nazorat o'tkazish yo'nalishlari va tadbirlari

5. Quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha korrupsiyaga qarshi monitoring o'tkaziladi: korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

ommaviy axborot vositalarida bank xodimlarining yoki uning biznes-hamkorlarining korrupsiyaviy harakatlari to'g'risidagi axborot mavjudligi monitoringi;

bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi.

Tarkibiy bo'linmalar "Ichki audit dasturi"da belgilangan muddatda ichki audit o'rganishlaridan o'tkazilishi lozim. Zarur bo'lganda, "Ichki audit dasturi"da belgilanmagan tarkibiy bo'linma (lar) ichki audit o'rganishlaridan o'tkazilishi mumkin.

6. Korrupsiyaga qarshi tizimning nazorati quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

bankdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

III. Korrupsiyaga qarshi tizim monitoringini o'tkazish tartibi

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi Komplayens nazorat departamenti tomonidan doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashga oid qonunchiligi (masalan, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi qarorlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ko'rsatmalari, xalqaro va chet el tashkilotlari tavsiyalari) asosida kuzatib borish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bunda, zarurat tug'ilganda Komplayens nazorat departamenti monitoring yakunlari bo'yicha bankdagi korrupsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish, ichki me'yoriy hujjatlarni

o'zgartirishga oid takliflar yoki yangi hujjatlar, chora-tadbirlar loyahasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun bank rahbariga kiritadi.

8. Ommaviy axborot vositalarida bank xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari to'g'risidagi axborot mavjudligi bo'yicha monitoringi, bank axborot xizmati tomonidan doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Monitoring natijasida xodimga taalluqliligi bo'yicha aloqador bo'lgan xabar aniqlanganda bankdagi xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda harakat qilinadi.

9. Bank xodimlarining asosiy korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirish Komplayens nazorat departamenti tomonidan yarim yilda bir marta amalga oshiriladi.

Xodimlarning xabardorligi mazkur Tartibning 1-ilovasida keltirilgan xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish tizimiga muvofiq o'tkazilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bank xodimlarining tekshiruvda ishtirokini aniqlash bankning turli tuzilmalaridan turli lavozimlarni egallagan xodim (har bir tarkibiy bo'linmadan kamida bitta xodim);

korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va bank talablariga muvofiq savollar ro'yxatini tuzish (vaziyatli topshiriqlar – keyslarni yechish bilan, savollarning minimal soni 10 ta, test, ochiq savollar yoki boshqa shaklda tuzilishi mumkin);

javob/yechimlarni taqdim qilish uchun tanlangan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;


natijalarni tahlil qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va tartib-taomillarini tushunish va ularga rioya qilishdagi qiyinchiliklarni xodimlar bilan muhokama qilish.

10. O'tkazilgan monitoring va uning natijalari to'g'risidagi axborot mazkur Tartibning 2-ilovasiga muvofiq shaklda jurnalga kiritiladi.

IV. Korrupsiyaga qarshi tizimning nazoratini amalga oshirish

11. Bankning korrupsiyaga qarshi dasturlari, yo'l xaritalarining ijrosi ustidan nazorat korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha ichki hujjatlarga muvofiq hisobot tuzish davomida amalga oshiriladi.

12. Bank tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablar va tartib-tamoyillarga rioya etilishi ustidan nazorat bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi (KQKMT)ning har bir jarayoni bo'yicha belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlariga muvofiq amalga oshiriladi.



13. Ko'rsatkichlarni yig'ish, baholash va tahlil qilish davriyligi va mas'ul shaxslari bankning KQKMT jarayonlari uchun tasdiqlangan ko'rsatkichlar va samaradorlik mezonlariga muvofiq belgilanadi.

14. Samaradorlik ko'rsatkichlari bankning KQKMT jarayoni rahbarlari tomonidan ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, mezonlar va ko'rsatkichlarning o'zi jarayonlar rahbarlari va Komplayens nazorat departamenti direktorining taklifiga binoan bank Boshqaruvi raisi tomonidan yangilanishi va tasdiqlanishi mumkin.

15. KQKMT jarayonlarining samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur Tartibning 3-ilovasidagi shaklida taqdim etiladi.

V. Yakuniy qoidalar

16. Monitoring va nazorat yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.

17. Monitoring va nazorat yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni bajarish, amalga oshirilgan ishlar haqida Komplayens nazorat departamentiga tegishli ma'lumotlar taqdim etilishi uchun bank tarkibiy bo'linmalari rahbarlari shaxsan javobgardir.

18. Bank xodimlari ushbu Tartib bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmasligi, jumladan:

bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki me'yoriy hujjatlari talablariga amal qilishi;

korruption harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etishi;

bank xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli faktlar va dalillar aniqlangan taqdirda ular haqida Komplayens nazorati departamentiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bankning maxsus aloqa kanallari orqali zudlik bilan xabar berishi lozim.

19. Mazkur Tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

20. Biznes-hamkor va xodimlar (bank xodimi) ushbu Tartib bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmasligi, jumladan:

bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki me'yoriy hujjatlari talablariga amal qilishi;

korruption harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etishi;

bank xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli faktlar va dalillar aniqlangan taqdirda ular haqida Komplayens nazorati departamentiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bankning maxsus aloqa kanallari orqali zudlik bilan xabar berishi lozim.

21. Mazkur Tartib bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi.

22. Bank Boshqaruvining 2022-yil 14-fevraldagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Aksiyadorlik tijorat banki “Qishloq qurilish bank”da korrupsiyaga qarshi kurashish tartib tamoyillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” (285-son bilan ro‘yxatga olingan) va 2022-yil 28-dekabrda 41-sonli qarori bilan tasdiqlangan Uslubiyotga 1-sonli o‘zgartirishlar (285-1-son bilan ro‘yxatga olingan) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi.

Kiritildi:

**Komplayens nazorat
departamenti direktori**

J. Yusupov

Kelishildi:

Risk menejment departamenti
direktori

K. Karimov

Lingvist

A. Ravshanov

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig‘i

S. Raxmatullayev

*“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda
korruptsiyaga qarshi tartib-
taomillarning samaradorligini
monitoring va nazorat qilish Tartibiga
I-ilova*

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB xodimlarining korruptsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish
TIZIMI**

T/r	Tekshiruv yoʻnalishi	Tekshiruv tadbirlari
1.	Bank xodimlariga odob-axloq qoidalariga, korruptsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilish masalalari boʻyicha treninglar (onlayn, oflayn) oʻtkazilishining monitoringi	Treninglar muntazamligi, ularni mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi boʻyicha ichki talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.
2.	Korruptsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va tartib-taomillar talablarini bilishini tekshirish	Bank xodimlari tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida oʻtkaziladigan test yoki boshqa nazorat tadbirlaridan oʻtishlari natijalarining tahlili; Xodimlarni korruptsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qoʻydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish; Xodimlarni korruptsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarning bilishini tanlov asosida tekshirish: a) tekshiruvda qatnashish uchun Banka xodimlarini tanlov asosida aniqlash (soʻrovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni – Bankda turli tarkibiy boʻlinmalardan turli lavozimlarni egallab turgan kishilar soni – 6 nafar); b) ichki hujjatlarda koʻrsatilgan korruptsiyaga qarshi talablar va normalar boʻyicha (muayyan vaziyatda vazifa – keyslarni hal qilish bilan) savollar roʻyxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin); v) javoblar/qarorlarni taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish; g) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korruptsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushunishda qiyinchiliklarni muhokama qilish.

*“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda
korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning
samaradorligini monitoring va nazorat qilish
Tartibiga 2-ilova*

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish
JURNALI**

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har oy/har chorakda/har yarim yilda)	Monitoring / nazoratni o'tkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to'g'rilash choralari	Mas'ul ijrochi	To'g'rilanadigan chora-tadbirlarning ijro muddati	Ijro holati
Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarliligini baholash								
1.	Korrupsiyaga qarshi tizim tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi	Har oy						
Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash								
2.	OAV monitoringi	Har oy						
3.	Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi	Har yarim yilda						
4.	Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat	Har chorakda						
5.	Bankdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat	Har chorakda						

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda
korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning
samaradorligini monitoring va nazorat
qilish Tartibiga 3-ilova

T/r	Samaradorlik ko‘rsatgichi va uning hisoblash uslubiyoti	Samaradorlik ko‘rsatgichi mezonlari		<u>Davriylikni ko‘rsating</u> davr uchun amaldagi ma’lumotlar	Ma’lumot to‘plash uchun javobgar shaxs	Tahlil qilish uchun javobgar shaxs
		Maqsad	Chegara			
1. KQKMTni rejalashtirish						
1.1.						
1.2.						
2. KQKMT talablarini amalga oshirish va ta’minlash						
2.1.						
2.2.						
3. KQKMTni monitoring qilish va baho berish						
3.1.						
3.2.						
4. KQKMT faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish						
4.1.						
4.2.						

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot xizmati
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
Xulosasi

2024-yil 21-iyun

Toshkent shahri

165 -son

1. Ichki me’yoriy hujjat - **Tartib**
loyihasining turi:

2. Ichki me’yoriy hujjat - **“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda**
loyihasining nomi: **korruptsiyaga qarshi tartib-taomillarning**
samaradorligini monitoring va nazorat qilish
Tartibi

3. Lingvistik ekspertizani - **A.Ravshanov**
o’tkazuvchi:

4. Lingvistik ekspertiza - **2024-yil 21-iyun**
o’tkazilgan sana:

5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o’tkazish tartibi to’g’risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo’nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mos, shuningdek, soha atamalari to’g’ri qo’llanilgan.

Ekspert:


(imzo)

A. Ravshanov

2024 - yil 21 - iyun

Toshkent sh.


YURIDIK XULOSA № 61

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Komplayens nazorat departamenti tomonidan ishlab chiqilgan “Biznesni rivojlantirish banki” ATBda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Tartibi (yangi tahrirda) loyihasi Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Mazkur ichki me'yoriy hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro'yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo'limi “Tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o'zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo'lib, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqdir.

Shuningdek, hujjat loyihasi O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o'tkazilib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillar aniqlanmadi.

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig'i



S.Raxmatullayev